

**XALQLAR DOXIYSINING DINIY-SIYOSIY QARASHLARI NEGA  
O'ZGARDI YOXUD URUSHNING TA'SIRI NATIJASIDA DINIY  
IDORALAR NUFUZI QANDAY O'SDI?**

*Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li*

[arslonbekovnursulton@gmail.com](mailto:arslonbekovnursulton@gmail.com)

*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti ( PhD)*

*Annotatsiya : Ushbu maqolada Ulug' Vatan urushi natijasida Sobiq Sovet ittifoqi rahbariyatidagi dinga qarshi ochiq dushmanlikning o'zgarib boorish jarayoni "din masalalari" bilan shug'ullangan Beriya kabi NKVD xodimlari va "Xudosizlar" uyushmalari faoliyati qanday qilib to'htatilgani va Butun ittifoq hududida barcha dinlarga berilgan ayrim erkinliklar haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar : demokratik talablar , diniy mafkura, Davlat Mudofaa Qo'mitasi, Xudosizlar uyushmasi, "Xalqlar otasi"ning murojaati.*

1939 – yil avgustdagi SSSR vaq Germaniyaning Polsha va boshqa slavyan xalqlari taqdirini hal qiluvchi maxsus kelishuvidan so'ng oradan 10yil o'tmasdan fashistik Germaniya Adolf Gitler boshchiligida Sharqqa hujum boshladi. Bu paytga kelib SSSR kuch orqali Boltiqbo'yi davlatlari, G'arbiy Belorussiya va G'arbiy Ukrainani bosib olib dunyo ko'z o'ngida tinchlikparvar davlat emasligini isbotlab ulgurgandi.

1941-yilda II jahon urushi boshlangandan so'ng Sovet Ittifoqi hududida ding ava dindorlarga munosabat o'zgardi, xususan musulmon xalqlarga nisbatan munosabat avvalgidan farqli tus oldi. Ikki taraf ham ya'ni sovetlar ham fashistlar ham dinni siyosiy-mafkuraviy qurolga aylantirib harakat qildilar. Fashistlar ateistik siyosatni qoralash orqali mahalliy dindor qatlani o'z tarafiga og'dirib olish va urushda mutlaqo ustunlikka intildi. Bunga barobar Sovetlar hukumati dinga qarshi bosimni vaqtincha pastlatish va turli millat av elatlarni yagona maqsad Vatan

ozodligi yo'lida birlashtirish yo'lidan bordilar.[1;9-25b]

SSSRning 22iyunda bevosita II jahon urushiga qo'shilishi ortidan sho'rolar dinga qarshi kurashini to'htatib turishga majbur bo'ldi.Bunga quyidagi omillar sabab bo'ldi:

1.Gitler boshliq GSDP va SS harbiy bo'linmalari bosib olingan Sobiq SSSR hududida dinga erkinlik berdi.Barcha joylarda diniy ibodatlar o'tkazishga, ibodatxonalardan foydalanishga ruxsat berildi. G'arbiy Ukraina, Qrim , Shimoliy Kavkaz va Boltiqbo'yi xalqlarining aksar qismi fashistlarga ishonidilar va ularni endi xaloskor sifatida ko'ra boshladilar.

2. 1942yilda Ittifoq qo'shinlari birin – ketin mag'lub bo'larkan , boshida AQSh va Buyuk Britaniya turuvchi G'arb davlatlari “Antifashistik davlatlar ittifoqi” faqatgina SSSR ma'lum insoniy huquqlar ,xususan vijdon erkinligi bo'lsagina mavjud masala hal bo'lishi mumkinligini talab qilishdi. Ya'ni SSSR dindorlarga va dinga nisbatan siyosatini o'zgartirishi kerak edi.

3. Nemislarga qarshi dindan foydalanish, bu mafkuraviy kurash bo'lib, qurol-yarog'siz davlatning ko'plab yo'qotishlari fonida faqatgina inson omili orqaligina amalga oshardi.Axolisining kata qismi hali ham e'tiqoddan qaytmagan dindorlar ekanligi hukumatni o'z siyosiy tizimini qayta ko'rishga majbur qildi.

Sovet hukumati va islom dini o'rtasidagi o'zaro munosabatlar rivojini tadqiq qilgan G'arb olimlaridan biri B.Kolarz “Sovet Ittifoqida din” deb nomlangan kitobida I.V.Stalin 1941-yil 3-iyulda radio orqali hamda 1941-yil 6-noyabrda mitingda so'zlagan nutqida doimiy takrorlanuvchi Ateistik ruhdagi nutqni yo'qolganini va mazkur jarayonda Islom diniga ham Provaslav dini kabi rasmiy maqom berilib, barchani birlashishga va sovet davlatini himoya qilishga chaqiruvdan iboratligiga e'tibor qaratadi. Xattoki urush boshlanishi bilan ayrim harbiy qismlarda Xudosizlikka targ'ib provokatsiyasi birmuncha pasayadi.[2; .425-432 p].

Bunga asosiy sabab, el-u yurt boshiga og'ir sinov tushib turgan bir vaziyatda turli millat va xalqlarni o'zaro bir-biriga suyanch bo'lishi, qo'llashi va asosiysi, dushmanga qarshi bir bo'lib harakat qilishi uchun ruhan tetik ba bardam bo'lishi

edi. Albatta ruhning ozuqasi bo'lgan iroda va sabotga chorlovchi manba sifatida Din qanchalar muhim rol o'ynashini Sobiq Ittifoq rahbarlari juda yaxshi tushunardi.

1920-yildan beri millionlab nusxada chop etilgan “Безбожник” jurnali 1941yil iyulidan boshlab faoliyatini to'htatdi. Albatta shu o'rinda aytish joizki, bu davrda boshqa ilmiy-sotsial jurnal va gazetalar ham 1941-1945-yillarda vaqtincha to'xtatilgan edi.

II Jahon urushi yillarida o'zaro sinfiy dushmanlik va diskriminatsion siyosat bilan uzoqqa borib bo'lmasligini, g'alaba uchun ba'zi chekinishlarni amalga oshirish kerakligini, sovet davlatini faqat haqiqiy birlik saqlab qolishi mumkinligini vaziyat talab qilardi.

I.V.Stalin ittifoqchi mamlakatlar talablari tufayli 1943yil may oyida Kommunistik Internatsionalni tugatish to'g'risidagi qarorni imzoladi, provaslav cherkovlari, musulmon masjid madrasalari faoliyatiga ruxsat berdi. Vijdon erkinligi va diniy ibodatlariga ruxsat berishning asosiy sababi dindorlarni urushga kengroq jalb qilish, dindan safarbarlikka chorlov sifatida foydalanish kommunistlar hukumatini vaqtinchalik dinga ruxsat berishga undagan edi.

Diniy siyosatda ikkita ulkan o'zgarish bo'ldi:

1. Dindorlarni ta'qib qilish va dinga qarshi ateistik targ'ibot mashinasi vaqtincha to'xtatilib, ayrim taniqli ruhoniylar hibslardan va ta'qibdan ozod etildi. Dinning ashaddiy dushmani bo'lgan “Jangovar xudosizlar ittifoqi” tugatilib, tashkilotning asosiy jaridasi “Безбожник” jurnali yopildi.[3;20b]

2. Davlat nazorati ostida diniy tashkilotlar qayta tashkil qilindi va ularning faoliyati kengaytirildi. Oliy bosh qo'mondon I.V.Stalin hukumat boshlig'i sifatida diniy tashkilotlar bilan qayta aloqalarni yo'lga qo'yish uchun ushrashuvlar tashkil etib, ular faoliyatini kengaytirish, o'quv yurtlari tashkil etish, dindorlarni ta'qib etishni to'htatish kabi masalalarga e'tibor qaratishi albatta ulkan ahamiyatga ega voqea edi. Zero barchani urushga safarbar etish asosiy sabab edi.

Bu siyosat samarasi o'laroq 1942 yilda Ittifoq qo'shinlari birin-ketin mag'lubiyatga uchrab, ulkan yo'qotishlarga uchrayotgan bir paytda mamlakatning mashhur “Труд” gazetasida Musulmonlar markaziy diniy boshqarmasining raisi,

muftiy Abdurahmon Rasuliyning (1881 – 1950) “Musulmon ulamolari va dindorlariga nemis-fashist bosqini borasida” deb nomlangan murojaatnomasi bosildi. Murojaatnomada shunday deyilgan edi: “Sizlarga qarshi urushuvchilar bilan Alloh yo‘lida jang qilingiz va tajovuzkor bo‘lmangiz! Shubxasiz Alloh tajovuzkorlarni sevmas” ,[4; 2:190] – degan oyatni dalil qilib, barcha Ittifoqda yashovchi musulmonlarni urushga chorlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Sobiq Ittifoqning 1920-1940-yillardagi Xudosizlikka, Dahriylikka asoslangan siyosiy ijtimoiy, sotsial kurashi II jahon urushi fonida tamoman o‘zgardi va bu musulmon xalqlarni va boshqa dindor qatlamni urushga tortish uchu ko‘rilgan vaqtinchalik tadbirlar edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Bociurkiw. Changing Soviet Image of Islam, 1917-1960. Karachi-Dacca.
2. B. Kolarz. Religion in the Soviet Union. New York, 1961.
3. H. Abdurasulova. Avtoreferat, 20-b.
4. Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi / Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent, 2011. Baqara surasi 190-oyat.